



QANDLI DIABET FONIDA TERI YARALARINING TIKLANISHIDA
BIOKIMYOVIY MARKERLAR DINAMIKASINI BAHOLAS

Axmedova D.B
Sayfutdinova Z.A
To'layeva O. I

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Qandli diabet bugungi kunda dunyo bo'ylab keng tarqalgan kasalliklardan biri xisoblanadi. Organizmda uglevodlar almashinuvining buzilishi bilan kechadigan kasallik bo'lib ,asosiy sababi insulin gormoni yetishmovchiligi yoki to'qimalarning insulinga sezuvchanligi pasayishidir.

Qandli diabet kasalligini asosan ikkita turi mavjud. I turda insulin ishlab chiqarilishining to'liq yetishmasligi, II turda esa insulinga nisbiy tanqislik yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ushbu o'zgarishlar avvalo uglevod almashinuvi jarayonining izdan chiqishiga keyingchalik esa moddalar almashinuvining boshqa yo'nalishlarida ham chuqur buzulishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi .Natijada organizmning barcha asosiy funksional tizimlarida jiddiy o'zgarishlar rivojlanadi.

Diabetning eng muhim asoratlaridan biri bu teri yaralarining bitish jarayonining sekinlashuvi .Buning asosiy sababi sifatida metabolik buzilishlar ,mikrosirkulyatsiyaning pasayishi va yallig'lanish mediatorlari muvozanatining o'zgarishi ko'rsatib o'tildi.Yara regeneratsiyaning qanday sur'atda kechayotganini aniqlashda biokimyoviy markerlar dinamikasini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Glyukoza darajasi , glikozillangan gemoglobin, turli sitokinlar, oksidlovchi stress ko'rsatkichlari,antioksidant fermentlar va oqsil almashinuviga tegishliy parametrlar bularning barchasi yara jarayonining kuchaytiruvchi mediatorlarning ortishi regeneratsiyaning sekinlashuviga olib keladi ,ularning kamayishi esa tiklanishning boshlangani yoki jadallashganini ko'rsatadi.

Udan tashqari angiogeneznining susayishi ,fibroblastlar faolligining pasayishi va kollagen sintezi jarayonining buzilishi natijasida yara bitishi jo'ziladi .Shuning uchun jarayon davomida biokimyoviy markerlarning o'zgarishi davolash samaradorligini baholashda ham, bemorga individual yondashuvni tanlashda ham katta imkoniyat yaratadi.

Quyidagi markerlar diabetik yara tiklanishini baholashda eng muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

1.Glikozillangan gemoglobin (HbA1c).

Diabet nazorati darajasini aks ettiradi HbA1c yuqori bo'lsa yara sekin bitadi.

2.Oksidativ stress markerlari MDA ,SOD.

MDA yuqori lipid peroksidlanishi kuchli,
SOD katalaza past antioksidant himoya susaygan.

3.Yallig'lanish markerlari IL-6, TNF-a,CRP.

Ularning me'yordan yuqori bo'lishi surunkali yaraga xos holat.

4.Angiogenez markerlari VEGF,PDGF.



VEGF, PDGF yangi qon tomirlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Diabetda pasayishi yara bitishini sekinlashtiradi.

5.To'qima parchalanuvchi fermentlar MMP-9, TIMP-1.

MMP-9,TIMP-1 yuqori bo'lsa kollagen parchalanadi ,yara chukurlashadi.

Qandli diabet fonida teri yaralari tiklanish jarayoni ko'plab biokimyoviy omillar ta'siriga bog'liq.Glyukoza metabolizmi buzilishi,oksidativ stress kuchayishi va yallig'lanish markerlarining oshishi yara bitish tezligini sezilarli pasaytiradi. Shu sababli biokimyoviy markerlar dinamikasini o'rganish klinik amaliyotda muhim prognostic ahamiyatga ega bo'lib davolash usullarini to'g'ri tanlash va monitoring qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Melmed S., Polonsky K., Larsen P. Williams Textbook of Endocrinology. 14-nashr.- Philadelphia :Elsevier ,2020.

2. Yo'ldoshev G'.Yo. va boshqalar. Biokimyo. - Toshkent: TMA nashriyoti, 2021.

3. Qosimov A., Raximov B. Endokrinologiya. – Toshkent: TMA, 2020.

4.Xu F., Zhao L., Yang H. Biomarkers in diabetic wound healing: mechanisms and clinical implications. Journal of Diabetes Research, 2020; 2020:

5.International Diabetes Federation (IDF). Global Guideline for Type 2 Diabetes. – 2023.

6. Wound Healing Society. Guidelines for the Treatment of Diabetic Foot Ulcers. – 2020.

7. Российские клинические рекомендации. “Диабетическая стопа: диагностика и лечение.” – Москва, 2023.